

# BOSHLANG'ICH SINFLARDA O'QISH SAVODXONLIGINI RIVOJLANTIRISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK YONDASHUVLARNING AHAMIYATI

*Abdumajidova Dilbar Isoqulovna*  
*G'allaorol tumani 87-umumiy o'rta ta'lim*  
*maktabi boshlang'ich sinf o'qituvchisi*

## **Annotatsiya**

Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini rivojlantirish masalalari keng yoritilgan. O'qish savodxonligini shakllantirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlar va matn bilan ishlash usullarining ahamiyati tahlil qilingan. Shuningdek, amaliy tajribalar asosida o'quvchilarning o'qish tezligi, tushunib o'qish va mustaqil fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish yo'llari ko'rsatib berilgan.

**Kalit so'zlar:** o'qish savodxonligi, boshlang'ich ta'lim, 3-sinf, matn bilan ishlash, interfaol metodlar, ta'lim samaradorligi

## **Kirish**

Boshlang'ich ta'limda o'qish savodxonligi o'quvchilarning keyingi ta'lim bosqichlaridagi muvaffaqiyatining asosiy sharti hisoblanadi. Ayniqsa, 3-sinf o'quvchilari o'qishni texnik jihatdan egallab bo'lib, endi matnni anglab, tahlil qilib o'qish bosqichiga o'tadilar. Shu sababli, bu bosqichda o'qish savodxonligini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratish talab etiladi.

Bugungi ta'lim tizimida o'quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirish va ularni hayotiy vaziyatlarda bilimlarini qo'llashga o'rgatish muhim vazifa bo'lib qolmoqda. Bu esa o'qish savodxonligini rivojlantirishda zamonaviy pedagogik yondashuvlardan foydalanishni taqozo etadi.

## **Boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qishga qiziqishini oshirish usullari**

1. **Didaktik o'yinlar** – o'yin orqali o'rgatish bolalarning e'tiborini jalb qiladi. Har bir mavzu uchun topshiriqlar tuzish o'quvchilarni faol ishtirok etishga undaydi.

2. **Rag'batlantirish** – o'quvchini ijobiy so'z, baho yoki kichik sovg'alar bilan rag'batlantirish ularda o'zini ko'rsatish istagini kuchaytiradi.

3. **O'quv materiallarini jonlantirish** – multimedia vositalari, video va audio darslar orqali o'rgatish o'quvchini zeriktirmaydi, balki vizual tasavvurni kuchaytiradi.

4. **Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv** – har bir bolaning qiziqishi, xarakteri, qobiliyatini inobatga olgan holda dars tashkil etish ularning faolligini oshiradi.

5. **Ijodiy topshiriqlar** – she'r yozish, rasm chizish, hikoya tuzish kabi mashg'ulotlar orqali o'quvchilar o'z fikrlarini ifodalashga o'rganadilar.

### **O'qish darslarida interfaol metodlardan foydalanish**

3-sinf o'qish darslarida interfaol metodlardan foydalanish o'quvchilarning faolligini oshiradi va dars samaradorligini ta'minlaydi. Jumladan:

- “Aqliy hujum”
- “Savol-javob”
- “Insert”
- “Klaster”
- “Rolga kirib o'qish”
- “Matnni davom ettir”

Bu metodlar o'quvchilarning matnni chuqurroq anglashiga yordam beradi. Matnni qism-qismga bo'lib o'qish va har bir qism bo'yicha savollar tuzish o'quvchilarning diqqatini jamlash va mantiqiy fikrlashini rivojlantiradi. Shuningdek, o'qilgan matn asosida rasm chizish yoki reja tuzish topshiriqlari o'quvchilarning ijodiy tafakkurini shakllantiradi.

### **Matn bilan ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish**

3-sinf o'quvchilari quyidagi ko'nikmalarni egallaydilar:

- Matn mazmunini tushunish
- Asosiy g'oyani aniqlash
- Qahramonlarga baho berish
- O'qilgan matn asosida xulosa chiqarish

Turli janrdagi matnlardan foydalanish va hayotiy vaziyatlarga asoslangan savollar berish o'quvchilarning o'qishga bo'lgan qiziqishini oshiradi. Natijada o'quvchilarning o'qish tezligi va tushunib o'qish darajasi yaxshilanadi.

Zamonaviy ta'lim jarayonida pedagogning innovatsion texnologiyalarni qo'llashi o'quvchilarning darsga bo'lgan munosabatini tubdan o'zgartiradi. Video, animatsiya, prezentatsiya va audio materiallar orqali dars o'tkazish o'quvchilarni zeriktirmaydi, balki vizual eslab qolish ko'nikmasini rivojlantiradi.

Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv – har bir o'quvchining individual xususiyatlarini hisobga olgan holda dars o'tish – ularning qiziqishini oshiradi. Ijodiy topshiriqlar orqali o'quvchilar fantaziyasini ishga soladi, mustaqil fikrlash qobiliyati rivojlanadi va o'qishga bo'lgan motivatsiyasi kuchayadi. Pedagogning samimiyligi, ijodkorligi va mehribonligi dars jarayonini o'quvchilar uchun yoqimli va quvonchli qiladi.

### **Xulosa**

3-sinf o'quvchilarida o'qish savodxonligini rivojlantirish boshlang'ich ta'limning muhim vazifalaridan biridir. Zamonaviy pedagogik yondashuvlar,

interfaol metodlar va samarali matn bilan ishlash usullari o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini, nutqiy savodxonligini va bilimlarni ongli o‘zlashtirishini ta’minlaydi. Shu bois, boshlang‘ich ta’limda o‘qish darslarini tashkil etishda innovatsion yondashuvlardan keng foydalanish maqsadga muvofiqdir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Karimova D.X. *Boshlang‘ich ta’lim metodikasi*, Toshkent, 2020.
2. Vygotskiy L.S. *Pedagogik psixologiya*, Moskva, 1991.
3. Mahkamova S.A. *Boshlang‘ich ta’limda innovatsion texnologiyalar*, Toshkent, 2022.
4. G‘oziyev E., Meliboyeva V. *Ijodiy tafakkurni rivojlantirish usullari*, *Xalq ta’limi* jurnali, №3, 2009.
5. Vigotskiy S.L. *Bola rivojlanishining psixologiyasi*, Toshkent, Sharq, 2010.